



Misol sifatida, laboratoriya ishlarida Arduino mikrokontrollerlari yoki simulyatsiya dasturlari orqali fizik jarayonlarni modellashtirish o’quvchilarni amaliy faoliyatga jalb etadi. Shuningdek, real muammolarga asoslangan loyihalar orqali o’quvchilar innovatsion fikrlash va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

STEM yondashuvi asosidagi ta’lim modelida o’qituvchi — yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi mentor sifatida ishtirok etadi. U o’quvchini mustaqil izlanishga, tajriba asosida xulosa chiqarishga, natijalarni baholashga undaydi. Shu tariqa, o’qituvchi o’quv jarayonining boshqaruvchisidan ko’ra, hamkor sifatida faoliyat yuritadi[6].

Natijada, STEM yondashuvi asosida tashkil etilgan fizika darslari o’quvchilarning: fanga bo’lgan motivatsiyasini oshiradi; nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog’laydi; kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi; kelajakdagi ixtisoslashuv uchun zarur kognitiv poydevorni yaratadi[7].

XULOSA.STEM yondashuvi asosida fizika fanini o’qitish — zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Bu yondashuv o’quvchilarda mantiqiy, tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal etish ko’nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ilmiy va amaliy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi.

Akademik litsey bosqichida STEM yondashuvini samarali joriy etish uchun: o’qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish; zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash; fanlararo integratsion dasturlarni ishlab chiqish; o’quvchilarning loyiha va tajriba faoliyatini qo’llab-quvvatlash zarur.

Demak, STEM yondashuvi fizika ta’limining sifatini oshirish bilan birga, o’quvchilarda XXI asr ko’nikmalarini — ijodkorlik, hamkorlik, muammoli fikrlash va texnologik savodxonlikni shakllantirishning samarali vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi to’g’risida”gi PF-46-son Farmoni. — 2020-yil.
2. Bybee R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.
3. Honey M., Pearson G., & Schweingruber H. (Eds.). (2014). STEM Integration in K–12 Education. National Academies Press.
4. Xodjayev A.A., Murodova D.R. (2022). “STEM yondashuvini o’quv jarayoniga tatbiq etishning metodik asoslari.” Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, №4.
5. Beers S. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for Their Future. National Education Association.
6. O’rinboyeva K.S. (2024). “Fizika fanini o’qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati.” Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy axborotlari, №2.
7. Yakman G., & Lee H. (2012). Exploring the Theoretical Framework of Integrated STEM Education. Eurasia Journal of Mathematics, Science & Technology Education.

TURIZM LEKSIKASINING SEMANTIK MAYDONI VA ULARNI O’QITISH STRATEGIYALARI

Akbarov Alisher Axmadjon o’g’li
Qo’qon davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda turizm leksikasining semantik maydoni konseptual va diskursiv jihatdan yoritiladi hamda bu leksik birliklarni samarali o’qitish strategiyalari asoslanadi. Turizm sohasi til manzarasida normativ-infratuzilmaviy atamalar, tajriba va identitetni sahnalashtiruvchi ifodalar hamda brendingga xos baholovchi birliklar birgalikda faoliyat ko’rsatadi; ular ko’pincha metaforik, madaniy jihatdan yuklangan va ko’p tilli kontekstda ishlatiladi. Tadqiqot o’zbek, rus va ingliz tillaridan tuzilgan pedagogik korpusga tayanib, kollokatsion profililar, frame-semantik tahlil va ssenariyga asoslangan amaliy mashqlar orqali leksik maydonning tarkibiy qatlamlarini aniqladi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, terminologik barqarorlik talab etiladigan sohalarida standartlashtirilgan ekvivalentlar hamda orqa tarjima tekshiruv muhim, tajribaviy va madaniy birliklarda esa qisqa izohlash bilan endonimni saqlash



kommunikativ samaradorlikni oshiradi. O‘qitish metodikasi sifatida korpusga asoslangan “farqlash orqali o‘rganish”, translanguagingni maqsadga muvofiq boshqarish va auditoriyaga mos registрни modellashtirish taklif qilinadi. Gid-tarjimonlar tayyorlashda “tirik” ikki yoki uch tilli glossariylar, ssenariyli baholash va kollokatsion ko‘rsatkichlarga tayanuvchi rubrikalar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: turizm leksikasi; semantik maydon; korpus lingvistika; kollokatsiya; translanguaging; terminologik standartlashtirish; gid-tarjimon; diskurs pragmatikasi.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ ЛЕКСИКИ ТУРИЗМА И СТРАТЕГИИ ЕГО ПРЕПОДАВАНИЯ

Акбаров Алишер Ахмаджон оглы
аспирант Кокандского государственного университета

Аннотация: Данная диссертация рассматривает семантическое поле лексики туризма с концептуальной и дискурсивной точки зрения и предлагает стратегии эффективного преподавания этих лексических единиц. В лингвистическом ландшафте туристического сектора нормативно-инфраструктурные термины, выражения, драматизирующие опыт и идентичность, а также оценочные единицы, характерные для брендинга, действуют совместно; они часто используются метафорически, с культурной нагрузкой и в многоязычном контексте. В исследовании были выявлены структурные слои лексического поля с использованием профилей коллокаций, фреймово-семантического анализа и практических упражнений на основе педагогического корпуса текстов из узбекского, русского и английского языков. Результаты показывают, что стандартизированные эквиваленты и проверка обратного перевода важны в областях, где требуется терминологическая стабильность, а сохранение эндонима с кратким пояснением в эмпирических и культурных единицах повышает коммуникативную эффективность. В качестве методики обучения предлагается корпусное «обучение через дифференциацию», целенаправленное управление транслингвизмом и моделирование регистра, соответствующего аудитории. При подготовке экскурсоводов рекомендуются «живые» двуязычные или трёхязычные глоссарии, оценка на основе сценариев и рубрики, основанные на коллокационных индикаторах.

Ключевые слова: туристическая лексика; семантическое поле; корпусная лингвистика; коллокация; транслингвизм; терминологическая стандартизация; экскурсовод; прагматика дискурса.

THE SEMANTIC FIELD OF TOURISM LEXICAN AND STRATEGIES FOR TEACHING THEM

Akbarov Alisher Akhmadjon oglu
PhD student at Kokand State University

Annotation: This thesis sheds light on the semantic field of tourism lexicon from a conceptual and discursive perspective and provides strategies for effective teaching of these lexical units. In the linguistic landscape of the tourism sector, normative-infrastructure terms, expressions that dramatize experience and identity, and evaluative units specific to branding operate together; they are often used metaphorically, culturally loaded, and in a multilingual context. The study identified the structural layers of the lexical field using collocation profiles, frame-semantic analysis, and scenario-based practical exercises based on a pedagogical corpus from Uzbek, Russian, and English. The results show that standardized equivalents and back-translation checking are important in areas where terminological stability is required, while preserving the endonym with a brief explanation in experiential and cultural units increases communicative efficiency. As a teaching methodology, corpus-based “learning by differentiation”, purposeful management of translanguaging and modeling of a register appropriate to the audience are proposed. In the training of tour guides, “living” bilingual or trilingual glossaries, scenario-based assessment and rubrics based on collocational indicators are recommended.

Keywords: tourism lexicon; semantic field; corpus linguistics; collocation; translanguaging; terminological standardization; tour guide; discourse pragmatics.



Turizm leksikasi ijtimoiy tajriba, hududiy brending va meros siyosatini birlashtirgan gibril til tizimini tashkil etadi. Bu tizimda bir tomondan huquqiy maqom beruvchi va xavfsizlikni bildiruvchi terminlar mavjud bo’lsa, boshqa tomondan mehmon tajribasini tasvirllovchi baholovchi-metaforik birliklar ham faol qo’llanadi. “UNESCO Butunjahon merosi ob’ekti”, “milliy bog’”, “rekreatsion sig’im” kabi nomlar normativ-institutsional mazmunni kodlasa, “jonli muzey”, “silk road experience”, “mehmondo’stlik ruhi” singari birliklar voqelikni estetikashtiradi va iste’molchi tasavvurini boshqaradi. Semantik maydon nuqtayi nazaridan turizm leksikasi meros, mehmondo’stlik, harakatchanlik va barqarorlik ramkalarida uyushadi; har bir ramka ichida o’zaro paradigmatic aloqalar, kollokatsion naqshlar va konseptual komponentlar tarmog’i shakllanadi. Ushbu murakkab qatlamni o’qitish ham kontseptual, ham pragmatik jihatdan murakkab vazifa bo’lib, an’anaviy ro’yxat yodlash yondashuvi talab etilgan natijani bermaydi. Samarali strategiyalar til birliklarini ularning tabiiy diskursiy kontekstlarida ko’rsatish, kollokatsion bog’lanishlarni ongli ravishda sezdirish va auditoriyaga mos nutqiy qarorlarni boshqarishni talab qiladi.

Maqsad turizm leksikasining semantik maydonini strukturaviy jihatdan tavsiflash, leksik va pragmatik xususiyatlarini korpus dalillari asosida aniqlash hamda ushbu birliklarni o’qitish uchun amaliy, baholashga yo’naltirilgan strategiyalar majmuasini asoslashdan iborat.

Tadqiqot uchun 2017–2024 yillarda e’lon qilingan o’zbek, rus va ingliz tillaridagi milliy turizm portallari, muzey ekspozitsiya matnlari, sayyohlik paketlari tavsiflari, UNESCO va ICOMOS hujjatlari hamda destinatsiya marketing materiallaridan iborat taxminan 350 ming so’zli pedagogik korpus tuzildi. Korpusdan termin nomzodlari chastota va “weirdness” ko’rsatkichlari bilan ajratildi, so’ngra qo’lda validatsiya qilinib, meros, mehmondo’stlik, barqarorlik va harakatchanlik ramkalariga kodlandi. Konkordanslar orqali kollokatsion profillar, definitsion komponentlar va baholovchi birliklar xaritalandi. O’qitish bosqichida ssenariyli mikro-ma’ruzalar, ko’zi tushirib tarjima, ikki tilli tur bo’laklari va orqa tarjima mashqlari o’tkazildi; auditoriyaga mos registri boshqarish uchun oila, mutaxassis va aralash guruhlar modellashtirildi. Baholashda vaqtga bog’liq termin esga tushirish, kollokatsion cloze topshiriqlari va kriterial rubrikalar qo’llandi; ikki baholovchi orasida kelishuvni ta’minlash uchun kalibrovka sessiyalari o’tkazildi.

Semantik maydonning meros ramkasida “nomoddiy madaniy meros” atrofida “asrab-avaylash”, “avloddan-avlodga o’tish”, “saqlash rejasi” kabi kollokatsiyalar tizimli ko’rinish oldi; rus va ingliz matnlarida mos ravishda “охрана/передача” va “safeguarding/transmission” birliklari bilan yaqin sintagmatik bog’lanish kuzatildi. Bu holat atamaning kontseptual yadro va funksional periferiyasini farqlashni osonlashtirdi. Barqarorlik ramkasida “jamiyatga asoslangan turizm”, “yuk ko’tarish quvvati (rekreatsion sig’im)” singari birliklar nisbatan kam baholovchi haloga ega bo’lib, ularning sinonimik kengayishi cheklanganligi aniqlandi; bu qatlamda standartlashtirilgan ekvivalentlar bilan ishlash va orqa tarjima orqali ma’no tekshiruvi talabalarning aniqligini oshirdi. Mehmondo’stlik va tajriba ramkasida metaforik va baholovchi birliklarning ulushi yuqori bo’lib, inglizcha materiallarda “living”, “authentic”, “immersive” kabi intensifikatorlar, o’zbek matnlarida esa “ruh”, “an’ana”, “mehmondo’stlik” kabi identitet kodlovchilar ko’p uchradi. Amaliy mashqlarda talabalarning reklama uslubini terminologik qatlamdan ajratish qobiliyati kuchaydi, normativ birliklar uchun intensivlikni pasaytirish, tajribaviy birliklarda esa endonimni qisqa izoh bilan birga qo’llash strategiyasi ustuvor bo’lib bordi. Translanguaging maqsadga muvofiq boshqarilganda farqlash orqali o’rganish kuchaydi: parallel konkordanslar kollokatsion xatolarni kamaytirdi, ayniqsa merosga doir fe’l birikmalarida noto’g’ri reklamaviy intensifikatorlardan voz kechish kuzatildi. Biroq ba’zi o’rinlarda kalkalash huquqiy-texnik farqlarning xiralashuviga olib keldi; masalan, “national park” va “tabiat bog’i” hamda “qat’iy qo’riqlanadigan hudud” terminlari orasidagi funksional chegaralar adashtirildi, bu hol glossariyda foydalanish eslatmalarini kiritish zaruratini ko’rsatdi. Ssenariyli baholash talabalarning auditoriya dizaynini ongli boshqarishini namoyon qildi: mutaxassis guruhlarda texnik komponentlarni saqlash, oilaviy auditoriyada esa sintaktik soddalashtirish bilan izohlash muvaffaqiyatli qo’llandi.

Olingan natijalar turizm leksikasi semantik maydonining qatlamli tabiatini tasdiqlaydi va o’qitish strategiyalarini funksional tamoyillarga tayanib qurish zarurligini ko’rsatadi. Normativ-infratuzilmaviy qatlamda terminologik barqarorlik ustuvor bo’lgani bois, standart ekvivalentlar, kollokatsion minimumlar va orqa tarjima tekshiruvlari markaziy rol o’ynaydi. Bu qatlamda “ochiq talqin”dan ko’ra “aniq moslik” afzal; shu sababli glossariylar qat’iy ko’rsatkichlar bilan boshqarilishi, sinonimik tarqoqlikka yo’l qo’yilmasligi maqsadga muvofiqdir. Tajriba va identitet qatlamida baholovchi va metaforik resurslar kommunikativ qiymat yaratadi; demak, o’qitish jarayonida bu resurslar nazoratsiz qabul qilinmasligi, balki registri, auditoriya ehtiyoji va brend hikoyasi bilan uyg’unlashtirilishi lozim. Endonimni saqlash va qisqa,



yuklamasiz izoh berish chet ellik auditoriya uchun ham tushunarlikni, ham autentiklikni ta’minlaydi. Korpusga asoslangan “farqlash orqali o’rganish” yondashuvi aniq dalillar bilan qo’llab-quvvatlangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi; konkordanslar kollokatsion xatolarni ochadi, frame-semantik tahlil esa definition komponentlarning to’liq ko’chishini nazorat qiladi. Translanguagingning ijobiy ta’siri vazifa maqsadi bilan chegaralanganida kuchayadi: seminar da konseptual taqqoslash, laboratoriyada dalilga tayangan kuzatish, simulyatsiyada auditoriya fokusli ijro qoidasi multilingval resurslarni tizimli o’zlashtirishga olib keladi. Baholash rubrikalariga aniqlik, kollokatsion nazorat, registr mosligi va madaniy adekvatlik kabilarni kiritish baholovchilar orasida kelishuvni mustahkamlaydi va qayta aloqa sifatini oshiradi. “Tirik” glossariylar — misollar, kontrindikatsiyalar va tipik xatolar ro’yxati bilan boyitilgan — o’qitish va amaliyot o’rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi.

Turizm leksikasining semantik maydoni meros, barqarorlik, mehmondo’sstlik va harakatchanlik ramkalari bo’ylab uyushgan bo’lib, har bir qatlamda leksik birliklarning kollokatsion va pragmatik profillari farqlanadi. O’qitishda muvaffaqiyat kaliti shu farqlarni ochib berish, normativ qatlamda standartlashtirishni qat’iylashtirish, tajriba va identitet qatlamida esa autentiklik va tushunarlik muvozanatini saqlashdir. Korpusga tayanib farqlash orqali o’rganish, maqsadga muvofiq translanguaging va ssenariyga asoslangan baholash integratsiyasi talabalarda terminologik aniqlik, kollokatsion boshqaruv va auditoriyaga mos registrni kuchaytiradi. Kelgusida kengroq til kombinatsiyalarini jalb etish, jonli ekskursiya nutqining prosodikasini hisobga olish hamda uzoq muddatli eslab qolishni intervalli takrorlash orqali tekshirish mazkur metodikaning barqaror natijasini baholashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Dann G. M. S. The Language of Tourism: A Sociolinguistic Perspective. — Wallingford: CAB International, 1996. — 296 p.
2. Thurlow C., Jaworski A. Tourism Discourse: Language and Global Mobility. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2010. — 272 p.
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. — London; New York: Routledge, 2018. — 352 p.
4. Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. 2nd ed. — London; New York: Routledge, 2008. — 353 p.
5. Katan D. Translating Cultures: An Introduction for Translators, Interpreters and Mediators. 2nd ed. — Manchester: St. Jerome, 2004. — 373 p.
6. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2013. — 662 p.
7. Schmitt N. Vocabulary in Language Teaching. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2020. — 382 p.
8. ICOMOS. International Cultural Tourism Charter: Managing Tourism at Places of Heritage Significance. — Paris: ICOMOS, 1999. — 10 p.
9. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. — Paris: UNESCO, 2003. — 14 p.
10. Johns T. From Printout to Handout: Grammar and Vocabulary Teaching in the Context of Data-Driven Learning // ELR Journal. — 1991. — No. 4. — P. 27–45.

NOVELLA JANRINI O’RGANISHDA NARRATOLOGIK MODEL (GENNETT) VA KOMPARATIV POETIKA: METODLAR UYG’UNLIGI

Samatova Gulnoza Nematjonovna

Samarqand davlat pedagogika instituti Assistent o’qutuvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda novella janrini tahlil qilishda Gérard Genette narratologik modeli va komparativ poetikaning o’zaro uyg’unlashuv mexanizmlari yoritiladi. Genette taklif etgan vaqt, nuqtai nazar va ovoz kategoriyalari mikromatn darajasida qisqa nasrning ichki mexanikasini ko’rsatib beradi, komparativ poetika esa milliy adabiyotlar o’rtasida janriy funksiyalar, motivlar va paratekstlar harakatini aniqlashga imkon yaratadi. Tadqiqotda o’zbek novellalari bilan Yevropa an’analari o’rtasidagi muvofiqlik va farqlar vaqtning tartibi, davomiyligi va chastotasi; fokalizatsiya rejimi; hikoyachi ovozi hamda emblemik motivlar orqali kuzatildi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, o’zbek novellalarida vaqt manipulyatsiyasi ko’pincha etik yo’naltirilgan kulminatsiyani tayyorlaydi, ichki monolog esa ko’p hollarda dialoglashgan